

# SCIENCE AND EDUCATION

ISSN 2181-0842

VOLUME 3, ISSUE 4

APRIL 2022

<https://buxdu.uz>

# SCIENCE AND EDUCATION

SCIENTIFIC JOURNAL

ISSN 2181-0842

VOLUME 3, ISSUE 4

APRIL 2022



[www.openscience.uz](http://www.openscience.uz)

## **Bininchi ingliz-avg'on urushida Janubiy Turkiston bekliklarining ishtiroki masalasi**

Mahmud Zaynievich Orziyev  
mahmudorziyev@gmail.com  
Buxoro davlat universiteti

**Annotatsiya:** Maqolada 1838-1842 yillarda sobir bo'lgan birinchi ingliz-avg'on urushi va unda Buxoro amiri Nasrulloxon, shuningdek, Janubiy Turkistondagi o'zbek bekliklarining ishtiroki masalasi tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** ittifoq, mintaqqa, g'ayriddin, mustaqillik, siyosiy agent, ozodlik, harbiy yordam

## **The question of the participation of the principalities of South Turkestan in the Second Anglo-Afghan War**

Mahmud Zaynievich Orziyev  
mahmudorziyev@gmail.com  
Bukhara State University

**Abstract:** The article analyzes the First Anglo-Afghan War of 1838-1842 and the participation of the Emir of Bukhara Nasrullokhon, as well as the Uzbek principalities in South Turkestan.

**Keywords:** alliance, region, non-alignment, independence, political agent, liberty, military aid

XIX asrning birinchi yarmida markaziy Osiyoda yuz bergan siyosiy jarayonlarning yuqori nuqtasi bu 1838-1842 yillarda davom etgan ingliz-avg'on urushi bo'lib, bu urush Angliya va Rossiya imperiyalarining dunyo siyosat shaxmat doskasidagi raqobatining bir bo'lagi sifatida qaraladi. Rossiyaga moyil siyosat yurita boshlagan Avg'onistonga qarshi bosim o'tkazish maqsadida, Hindistondagi ingлиз hukumati kotibi Maktonen 1837 yil 20 yanvarda Do'stmuhhammadxonga Rossiya imperiyasi bilan har qanday aloqani uzish, aks holda bu Angliya va Avg'oniston o'rtaida urush holatiga o'tishni anglatishini maktub orqali ma'lum qilgan. Shuningdek, Rossiyaga qarshi Buxoro amirligi va Qunduz bekligi bilan yozishmalarni davom ettirish kerakligi ta'kidlagan.

Ingliz-avg'on urushi boshlanishi va urush jarayonida ham inglizlar mintaqadadagi davlatlar, bekliklarni o'zlariga ittifoqchi qilib olishga va ulardan

Avg'oniston istilosida foydalanishga uringan. Olib borilgan ayg'oqchilik targ'iboti natijalariga tayanib, 1839 yil 13 martda Hindistondagi inglizlar ma'muri lord Oklen Ost-Indiya kompaniyasining yashirin kengashiga maktub yo'llab, urushda Qunduz va Buxoroga umid bog'lashga imkon borligi, ularning Avg'onistonda yangi tiklangan Sadazoy qabilasini qo'llab-quvvatlashi mumkinligini ma'lum qilgan. Boshlanib ketgan birinchi ingliz-avg'on urushida inglizlarning texnik-taktik jihatdan yaxshi ta'lim ko'rgan armiyasidan mag'lubiyatga uchragan amir Do'stmuhammadxon Janubiy Turkiston hududlariga qochishga majbur bo'lган. U 1839 yil avgustda Xulm (Toshqo'rg'on) hokimi Muhammad Aminbek huzuriga qochib kelgan. Bu yerda Janubiy Turkistondagi o'zbek bekliklarini inglizlarga qarshi birlashtirishga harakat qilgan. Shuningdek, g'ayriddinlarga qarshi kurashda moliyaviy yordam ko'rsatishni so'rav, Eron va Buxoro davlatlariga o'z vakillarini yuborgan. Janubiy Turkiston bekliklaridan kutilgan yordamni ololmagan Do'stmuhammadxon o'g'illari Buxoroga bormaslikni maslahat bersada ularga qulq solmay Nasrulloxon huzuriga kelgan[4, 198]. Janubiy Turkiston uchun Buxoro va Avg'oniston o'rtasida raqobat bo'lsada, g'ayridinlarga qarshi kurashda bu holat to'siq bo'lmasligiga umid bog'langan bo'lsa kerak.

Buxoroga borishdan oldin Do'stmuhammadxon Toshqo'rg'on (Xulm)da ma'lum bir muddat turgan bo'lib, inglizlarga qarshi kurash maqsadida mahalliy beklar bilan muzokaralar olib borgan. O'zbek bekliklarining eng yirik va qudratlisi bo'lган Qunduzdan yordam olish uchun Do'stmuhammadxonning Murodbek huzuriga borishi ham natijasiz tugaydi. Shundan so'ng ilojsiz qolib Buxoroga qarab yo'lga tushgan. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, XIX asming o'rtalarigacha Janubiy Turkistonda o'zbeklarning Qunduz eng qudratli beklik bo'lib, uning hukumdori Murodbek va Do'stmuhammadxon o'rtasida o'zaro do'stona aloqalar mavjud bo'lsada, Murodbek barakzoylarning kuchsizlanishi tarafdori bo'lган. Do'stmuhammadxonning Buxoroga yo'l olish sabablaridan biri ham Qunduzdan yetarli darajada yordam ololmaganligida bo'lib hisoblanadi[3, 56]. Barakzoylarning kuchsizlanishi Janubiy Turkisdon bekliklarining mustaqilligini ta'minlashi mumkin bo'lган.

Do'stmuhammadxonning Buxoroda asirdek munosabatda bo'linishi, xo'rلانishi uning Avg'onistonga qaytish uchun reja tuzishga undagan. Hayotini tahlikaga qo'yib bo'lsada ikkinchi urinishda Buxorodan qochishga muvoffaq bo'lган. Shunday qilib, Buxoro amiridan moliyaviy, harbiy yordam olishga 1839 yil avgustida kelgan Avg'oniston amiri Do'stmuhammadxon Buxorodan 1840 yil apreliagina qochib ketishga muvoffaq bo'lганligi tarixiy adabiyotlarda keltirib o'tiladi[8, 236]. Do'stmuhammadxon Buxorodan qochib Shahrisabzga kelgan. 16 kun davomida bu yerda avg'on savdogari Kabirxon va Shahrisabz begining mehmoni bo'ladi. Bek 700 kishidan iborat otryad bilan uni Avg'onistonga kuzatib qo'ygan. Bu yerda uni

Xulm hukumdori yaxshi kutib olgan[4, 201]. Bu esa keyinchalik Nasrulloxonni Shahrisabz bekligiga qarshi harbiy yurish qilishiga sabab bo‘lgan.

Xulmda yaxshi kutib olingan Do‘stmuhhammadxon bir necha mayda o‘zbek bekliklari yordami bilan 6-8 ming atrfida askar yig‘ishga muvoffaq bo‘lgan. 1840 yil 17 sentyabrda ular Bomiyon va Sayganni egallasalarda inglizlar bilan ortiq jang qilishga kuchlar yetishmagan. Xulm hukumdori inglizlar bilan sullh tuzadi va Do‘stmuhhammadxonga boshqa yordam bermaslik majburiyatini oladi. Bu esa o‘zbek bekliklarining to‘liq birlasha olmaganliklarini ko‘rsatadi. Shunday bo‘lsada, tarixiy adabiyotlarda o‘zbek-tojiklardan iborat sakkiz ming kishilik qo‘sishin Parvon darada Do‘stmuhhammadxon boshchiligidagi inglizlarning generali Sel qo‘sishini yenggan. Jangda Hindukushda siyosiy agent bo‘lgan doktor Lord o‘ldirilgan va shundan so‘ng, inglizlar O‘rta Osiyo hududlariga yorib o‘tishga boshqa urinmaganlar. Ayrim tarixiy adabiyotlarda Do‘stmuhhammadxon boshchiligidagi o‘zbek-tojiklardan iborat qo‘shtining yengilish joyi Bomiyon bo‘lib, vaqtি 1840 yil oxirida ekanligi keltirib o‘tilgan.

Harbiy va moddiy yordam beradigan biror ishonchli ittifoqchi qolmagach, Do‘stmuhhammadxon inglizlarga taslim bo‘lgan. Ammo, kurashlar yangidan avjga chiqib, 1841-1842 yillardagi milliy ozodlik harakatlarda Do‘stmuhhammadxonning o‘g‘li Muhammad Akbarxon katta rol o‘ynaydi. U shu paytgacha Buxoroda amir Nasrullo tomonidan zindonda ushlab turilgan bo‘lib, dindor ulamolarning talablari bilan ozod qilingandi. Musulmon davlat rahbariga ko‘rsatilmagan yordam sababli ulamolar amir Nasrulloxonga nisbatan bosim o‘tkazganlar va Muhammad Akbarxonni ozod bo‘lishiga erishganlar. Ozodlikka chiqqan Muhammad Akbarxon Balxga kelishi bilan keng xalq ommasi tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi va 6 ming otliq unga yordam berishga to‘plangan. Natijada avg‘onistonda milliy ozodlik harakati qaytadan avj olgan. 1841 yil dekabrd Da‘stmuhhammadxonning katta o‘g‘li Sardor Vazir Muhammad Akbarxon Kobulga keladi va inglizlarga qarshi markaziy o‘rinni egallaydi. Kobulda ko‘tarilgan qo‘zg‘olon natijasida inglizlarni Avg‘oniston tuproq‘idan quvib chiqarish boshlanib ketadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, hozirgi Avg‘onistonning shimoliy qismlari (Janubiy Turkiston)da mavjud bo‘lgan o‘zbek bekliklari birinchi ingliz-avg‘on urushida turli siyosiy yo‘lni tutgan. Masalan eng qudratli beklik bo‘lgan Qunduz bekligi go‘yoki betaraf turgan bo‘lib, amalda Avg‘onistondagi barakzoylar hukumronligini kuchsizlantirish tarafdoi bo‘lgan. Xulm, Balx va boshqa bekliklar esa, Qunduz bekligi bosimini kuchsizlantirish maqsadida Do‘stmuhhammadxon atrofida birlashishga harakat qilganligini ko‘rish mumkin. Aynan o‘zbek bekliklarining shijoati bilan inglizlarning Avg‘oniston tuproq‘idagi istilochilik harakatlariga chek qo‘yish boshlangan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. MZ Orziev. The second world war and the unopened afghan front. Scientific reports of Bukhara State University 4 (3), 243-249.
2. MZ Orziev, AK Akhmatov. The channel from Sirdarya to bukhara: truth or fraud. Scientific reports of Bukhara State University 3 (1), 234-239
3. MZ Orziyev, BB Yunusova. Difficult ways edifying education. European conference on education and applied psychology, 72-77.
4. МЗ Орзиев. Материальная поддержка типографии, созданной в бухарском эмирате. Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные ...
5. KJK Orziyev Mahmud Zayniyevich. the influence of bukhara priests on the socio-political life of the timurids. The american journal of social science and education innovations 3 (04), 544-551
6. UB Sobirov, Orziyev M.Z. History of border conflicts between the states of bukhara and afghanistan in the second half of the 18th century. Central asian journal of social sciences and history 2 (4), 115-123
7. M Orziyev. Россия протекторати ўрнатилиш жараёнида бухоро амирлиги ва усмонли турк давлати муносабатлари россия протекторати ўрнатилиш жараёнида бухоро амирлиги ва усмонли турк давлати .... Центр научных публикаций (buxdu. uz) 8 (8)
8. M Orziyev. "Туркистон тўплами" да афғон туркистони бекликларининг сиёсий тарихига оид айrim маълумотлар (XVIII-XIX асрлар). Центр научных публикаций (buxdu. uz) 8 (8)
9. M Orziyev. Афғонистон давлатининг ташкил топиши ва xviii аср иккинчи ярмида бухоро-афғон муносабатлари. Центр научных публикаций (buxdu. uz) 8 (8)
10. M Orziyev. On the aspects of zahiriddin muhammad babur's political activity related to bukhara. Центр научных публикаций (buxdu. uz) 8 (8)
11. M Orziyev. Амир темур сиёсий фаолияти ва бухоро уламолари. Центр научных публикаций (buxdu. uz) 8 (8)
12. M Orziyev. On the role of bukhara in the development of science and culture during the reign of amir temur and the temurids. Центр научных публикаций (buxdu. uz) 8 (8)
13. M Orziyev. Rossiya protektorati o'matilishi jarayonida Buxoro amirligi va Usmonli Turk davlati munosabatlari: Rossiya istilosi davrida Buxoro davlati va Usmoniyalar munosabatlari manba va .... Центр научных публикаций (buxdu. uz) 1 (1)

14. Jurabek Majidov. Основные направления образовательного комплекса на основе экономико-математического моделирования. *Academicia an international multidisciplinary research journal*. 2020. 12.
15. JJ Majidov. Glimpses from the history of the amudarya flotilla at the end of 19th-beginning of the 20th century (on the basis of the proceedings of "Turkestan collection"). Центр научных публикаций (buxdu. uz) 2 (2)
16. MJ Jalilovich. Transport and road construction issues in bukhara academicia an international multidisciplinary. Центр научных публикаций (buxdu. uz) 1 (1)
17. J Majidov. XX asr 70-йилларининг 2-ярмида Бухорода телефон хизмати хусусида. *Academicia an international multidisciplinary research journal*
18. J Majidov. Наземный и воздушный транспорт в СССР. *Academicia an international multidisciplinary research journal* 2020. 1.
19. J Majidov. XX asr boshlarida Eron matbuotining Turkiston va Buxoroga tarqalishi: Turkiston to'plami materiallari asosida. Центр научных публикаций (buxdu. uz) 8 (4)
20. J Majidov. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Amudaryo flotiliyasi faoliyati tarixidan (Turkiston toplami materiallari asosida). Центр научных публикаций (buxdu. uz) 8 (1)
21. J Majidov. Road and tranport issues in Bukhara as a social problem.
22. J Majidov. Бухоро халқ совет республикасида қуруқлик ва ҳаво транспорти: ечим ва муаммолар. Центр научных публикаций (buxdu. uz) 8 (5)
23. J Majidov. XX asrning ikkinchi yarmida Buxoroda yo'l qurilishi masalalari (Buxoro haqiqati gazetasi ma'lumotlari asosida). Центр научных публикаций (buxdu. uz) 8 (7)
24. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Психологические механизмы девиантного поведения. *Психология XXI века*. Ярославль., 2020. –С. 125-127.
25. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Стрессли вазиятларда психологик ҳимоя механизmlари ва копинг хулқ-атвор намоён бўлишининг ижтимоий психологик хусусиятлари: стрессли вазиятларда психологик ҳимоя механизmlари. *Psixologiya ilmiy jurnalı*. 2020 yil, 4 son 109-115 b.
26. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Ўсмирларда психологик ҳимоя механизmlарининг намоён бўлишининг ўзига хослиги. *Psixologiya ilmiy jurnalı*. 2021 yil, 4 son 103-112 b.
27. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Экстремал вазиятларда копинг хулқ-атвор ва стратегиялар намоён бўлишининг ижтимоий психологик хусусиятлари. *Psixologiya ilmiy jurnalı*. 2021 yil, 3 son 98-106 b.
28. Olimov L.Ya, Baratov Sh. R. Avezov O.P. *Psixologiya nazariyasi va tarixi. Darslik*. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti. Toshkent. 2019. -B. 494.

29. Olimov L.Ya. Shaxs psixologiyasi. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2019. -B. 280.
30. Олимов Л.Я., Эшов Э.С. Авезов О.Р. Девиант хулқ-атвор психологияси. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2019. -B. 420.